

**YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA OILA INSTITUTI VA UNING
JAMIYAT HAYOTIGA TA'SIRI: HUQUQIY VA IJTIMOYIY TAHLIL**

Sh.Sh.Xudoyberganov,
Qo'qon DU o'qituvchisi.

M. Abdugafforova

O. Yuldasheva

Qo'qon DU talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila institutining huquqiy maqomi, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va davlat himoyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada "Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini" tamoyilini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi kontekstida yoritiladi. Maqolada globallashuv sharoitida oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari va yoshlar tarbiyasidagi roli ilmiy jihatdan asoslangan. Kalit so'zlar: Konstitutsiya, oila instituti, milliy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, nikoh ixtiyoriyligi, huquqiy davlat, ma'naviy meros.

**FAMILY INSTITUTION IN THE NEW EDITION OF THE CONSTITUTION AND
ITS IMPACT ON SOCIAL LIFE: A LEGAL AND SOCIAL ANALYSIS**

Sh.Sh. Khudoyberganov,
Lecturer at Kokand State University.
M. Abdugafforova, O. Yuldasheva
Students of Kokand State University

ABSTRACT

This article analyzes the legal status of the family institution in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, its role in the development of society, and its significance under state protection. The principle of "The family is the primary unit of society" is explored within the context of the harmony between national and universal values. Furthermore, the article provides a scientific substantiation of the socio-legal mechanisms for strengthening family relationships and the role of the family in the upbringing of the youth amidst the challenges of globalization.

Keys words: Constitution, family institution, national values, civil society, voluntary marriage, rule of law, spiritual heritage.

ИНСТИТУТ СЕМЬИ В НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ И ЕГО
ВЛИЯНИЕ НА ОБЩЕСТВЕННУЮ ЖИЗНЬ: ЮРИДИЧЕСКИЙ И



СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Ш.Ш. Худойберганов, Преподаватель Кокандского
государственного университета.
М. Абдугаффорова, О. Юлдашева
Студентки Кокандского государственного университета

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется правовой статус института семьи в новой редакции Конституции Республики Узбекистан, её роль в развитии общества и значимость нахождения под защитой государства. Принцип «Семья — основное звено общества» рассматривается в контексте гармонии национальных и общечеловеческих ценностей. Кроме того, в статье дается научное обоснование социально-правовым механизмам укрепления семейных отношений и роли семьи в воспитании молодежи в условиях вызовов глобализации.

Ключевые слова: Конституция, институт семьи, национальные ценности, гражданское общество, добровольность брака, правовое государство, духовное наследие.

"Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi"[1.]. Bu shunchaki ibora emas, balki davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir. Bugungi globallashuvi sharoitida an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni huquqiy jihatdan mustahkamlash davlat va jamiyat oldida muhim masalaga aylandi.

Darhaqiqat oila faqat ijtimoiy birlik emas, balki jamiyatning barqarorligini ta'minlovchi strategik institutdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada oila va oilaviy munosabatlarga oid normalarning kengaytirilishi jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur maqolaning maqsadi — Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadagi oilaga tegishli normaning mazmun-mohiyatini va uning jamiyat hayotiga amaliy ta'sirini ilmiy ochib berishdan iborat.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada oilaning huquqiy maqomi tubdan mustahkamlandi. Unda belgilangan uchta asosiy jihat samaradorlikni belgilaydi.

Unga ko'ra:

Birinchiidan: Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida davlat va jamiyat tomonidan alohida muhofazaga olinadi.

Ikkinchiidan: Nikohning ixtiyoriyligi va teng huquqliligi tamoiliga asoslanganlik — demokratik oila modelining poydevoridir.

Uchinchiidan: Davlat nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar



yaratishni o'z zimmasiga oladi.

Oilani huquqiy himoya qilishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unligi shuni ko'rsatadiki, qonunchilikdagi oila modeli "universal demokratiya" andozalarini ko'r-ko'rona aks ettirmaydi, aksincha sharqona yondashuv asosida "kattalarga hurmat, kichiklarga izzat" tamoyili, mahalla va oila hamkorligi tizimi, nikohlanuvchilarning teng huquqliligi kabi zamonaviy normalar bilan uyg'unlashadi.

"Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir." [2.43] Ushbu norma oilaning nafaqat xususiy munosabatlar majmui, balki ommaviy-huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan institut ekanligini tasdiqlaydi. "Jamiyatning asosiy bo'g'ini" tushunchasi oilaning ijtimoiy va huquqiy maqomini belgilab beradi.

Oila davlatning demografik, iqtisodiy va madaniy barqarorligini ta'minlovchi birlamchi strukturadir. Davlatning mavjudligi bevosita oilaning sog'lom rivojlanishiga bog'liq. Shu sababli, ushbu jumla davlat zimmasiga oilani saqlash va rivojlantirish bo'yicha pozitiv majburiyatlarni yuklaydi.

Oila davlat muhofazasi tushunchasi iqtisodiy (nafaqalar, subsidiyalar), huquqiy (oila qonunchiligi) va ijtimoiy (psixologik yordam, sog'liqni saqlash) choralarni qamrab oladi. Oila instituti xalqaro standartlar bilan uyg'unlikka ega bo'lib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida ham "oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasidir u jamiyat va davlat tomonidan muhofaza etilishi huquqiga egadir" [3] deb belgilangan. Ushbu jumla oila va davlat o'rtasidagi "ijtimoiy shartnoma" ning bir qismi bo'lib, oilaning daxlsizligi va uning manfaatlarini ustuvor deb hisoblashga xizmat qiladi. Yangilangan Konstitutsiyada "nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi" deb belgilandi. Bu jumla nikohning vujudga kelish asoslarini va uning ichki arxitekturasini belgilaydi. Unda uchta fundamental prinsip mujassamlangan,

-Konstitutsiyaning yangi tahririda an'anaviy oilaviy qadriyatlar tushunchaning kiritilishi milliy o'zlikni anglash va madaniy merosni himoya qilishga qaratilgan. Bu nikohning nafaqat huquqiy shartnoma, balki ma'naviy asosga ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu masalaning huquqiy ahamiyati shundaki, Oila kodeksidagi normalar uchun konstitutsiyaviy poydevor bo'lib, sud amaliyotida nikohni bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topishda bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

-Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi. Bu norma "Ijtimoiy davlat" tamoyilining amaliy ifodasidir. Davlat faqatgina "himoya qilaman" deb deklaratsiya berish bilan cheklanmasdan, aniq kafolatlar yaratish majburiyatini oladi.



-Davlat o'zining barcha resurslarini oilani qo'llab-quvvatlashga safarbar etishi shartligi mustahkamlab qo'yilgan. Bu qoida fuqarolarga davlatdan muayyan ijtimoiy xizmatlarni talab qilish huquqini beradi. 76-modda O'zbekistonning antropotsentrik (inson va uning manfaatlari markazda) siyosatining yaqqol namunasidir. U oilani nafaqat biologik ko'payish vositasi, balki shaxs erkinligi, jamiyat taraqqiyoti va milliy qadriyatlar kesishgan muqaddas maskan sifatida e'tirof etadi. Ushbu moddaning har bir jumlasini mamlakatda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashning huquqiy algoritmidir.

Rivojlangan davlatlar milliy qonunchiligi bilan oila huquqi sohasidagi qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi va Oila kodeksi zamonaviy demokratik tendensiyalar bilan milliy an'analarning sintezini o'zida mujassam etgan.

Quyida oila institutini rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy tuzumlari bilan qiyosiy ta'minlan.

1. Germaniya: Davlatning "Nazorat ostidagi himoyasi"

Germaniya Federativ Respublikasining Asosiy qonuni 6-moddasida oila va nikoh davlatning alohida himoyasida ekanligi belgilangan[4.].

O'xshashlik: O'zbekiston kabi Germaniya ham oilani jamiyatning poydevori deb biladi.

Farqli jihati: Germaniya huquq tizimida nazorat funksiyasi prinsipi kuchli. Davlat oilaga faqat bolaning manfaati xavf ostida qolganda aralashadi. Germaniyada "nikoh" tushunchasi an'anaviy shakldan ko'ra, ko'proq individual erkinlikka tayanadi. O'zbekistonda esa 76-moddada "an'anaviy oilaviy qadriyatlar" termini alohida urg'ulanadi, bu esa huquqning sotsiomadaniy komponenti bizda yuqoriligini ko'rsatadi.

2. Fransiya: Sekulyarizm va "Fuqarolik shartnomasi"

Fransiya Konstitutsiyasi (1958) oila masalalariga to'g'ridan-to'g'ri ko'p to'xtalmaydi, biroq 1946-yilgi Konstitutsiya muqaddimasiga tayanadi[5.].

Huquqiy tabiat: Fransiyada nikoh — bu birinchi navbatda fuqarolik shartnomasi. O'zbekiston Oila kodeksida ham nikoh ixtiyoriy rozilikka asoslanishi belgilangan, biroq Fransiya huquqida PACS (fuqarolik birdamlik pakti) kabi nikohsiz birga yashashning huquqiy shakllari juda rivojlangan.

Davlat roli: Fransiya oila siyosatida "natalizm" (tug'ilishni rag'batlantirish) kuchli. O'zbekiston Konstitutsiyasining 76-moddasi 3-qismidagi "iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish" majburiyati Fransiya modeliga yaqin turadi, ya'ni davlat oilaning moddiy farovonligi uchun mas'ul.



3. Yaponiya: Shaxsiy qadr-qimmat va gender tengligi

Yaponiya Konstitutsiyasining 24-moddasi oilaviy munosabatlar bo'yicha dunyodagi eng ilg'or normalardan biri hisoblanadi[6.].

Individualizm va Kollektivizm: Yaponiya konstitutsiyasi nikoh faqat "ikki jinsning o'zaro roziligi" bilan qurilishini va oilaviy qonunlar shaxsiy qadr-qimmat (individual dignity) asosida bo'lishini talab qiladi.

Taqqoslash: O'zbekiston Konstitutsiyasidagi "nikohlanuvchilarning teng huquqliligi" prinsipi Yaponiya modeliga mos keladi. Biroq, Yaponiya huquq tizimi urug'-aymoqchilik (Koseki tizimi) qoldiqlaridan voz kechib, to'liq individual huquqlarga o'tgan bo'lsa, O'zbekiston oila huquqi "oila manfaati" va "shaxs huquqi" o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladi.

Qiyosiy tahlil jadvali

Mezon	O'zbekiston	Germaniya	Fransiya	Yaponiya
Konstitutsiyaviy asos	Oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini	Nikoh va oila - davlat himoyasida	Ijtimoiy himoya kafolati	Shaxsiy qadr-qimmat va tenglik
Qadriyatlar roli	An'anaviy qadriyatlar muhim	Liberal demokratik qadriyatlar	Sekulyar (dunyoviy) shartnoma	Individual huquqlar ustuvorligi
Davlat aralashuvi	Yuqori (ijtimoiy-moddiy ko'mak)	Cheklangan (faqat himoya uchun)	Yuqori (demografik rag'bat)	Minimal (shaxsiy hayot daxlsizligi)

Demokratik davlatlar konstitutsiyalarini solishtirish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston modeli "Ijtimoiy davlat" (Fransiya kabi) va "Milliy o'zlikni saqlash" (Yaponiya va Germaniyaning ayrim konservativ elementlari kabi) modellarining kombinatsiyasidir. Bizning qonunchiligimizdagi farqli jihat — "an'anaviylik" tushunchasining huquqiy norma sifatida kiritilganidir. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oila huquqi ko'proq individualizm tomon siljigan bo'lsa, O'zbekistonda oila jamoaviy (kollektiv) himoya ob'ekti sifatida saqlanib qolmoqda. Bu esa globallashtirish sharoitida milliy genofondni va ijtimoiy barqarorlikni himoya qilishning o'ziga xos mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda oila institutini yanada mustahkamlash uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Ota-bobolarimizning oila haqidagi o'gitlarini (masalan, Forobiy, Navoiy, Rizouddin



ibn Faxruddin qarashlari) bugungi huquqiy madaniyat bilan integratsiya qilish.

- "Oila psixologiyasi va etikasi" fanlarini oliy ta'limning barcha yo'nalishlarida chuqurlashtirilgan holda o'qitish.

- Milliy seriallar va media-mahsulotlarda "namunali oila" modelini targ'ib qilish, yoshlarda oilaga nisbatan muqaddaslik hissini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, yangilangan Konstitutsiya oilaning jamiyatdagi o'rnini huquqiy jihatdan eng yuqori cho'qqiga ko'tardi. Endigi vazifa – ushbu normalarni har bir fuqaro ongiga singdirish va amaliyotda ularning ishlashini ta'minlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 19-yanvar kuni xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi.

<https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>

2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.

3. https://www.ohchr.org/sites/default/files/UDHR/Documents/UDHR_Translations/uzb.pdf

4. <https://www.btg-bestellservice.de/pdf/80201000.pdf>

5. https://www.conseilconstitutionnel.fr/sites/default/files/as/root/bank_mm/constitution/constitution_russe_version_aout2009.pdf

6. <https://legalns.com/download/books/cons/japan.pdf>